

SAN'AT TARIXI VA SAN'ATSHUNOSLIKNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

*Maxmudova Aziza Azamat qizi**Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti
Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda
boshqarish yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada san'atning kelib chiqish tarixi va turlari, san'atning turli yo'nalishlarida ijod qilgan shaxslar, san'atshunoslikning fan sifatida shakllanishi keng yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: san'at, san'at tarixi, san'atshunoslik, muzeyshunoslik, predmet, funksiya, [kinematograf](#), [fotografiya](#), kartina, rassomchilik, musiqa.

San'atshunoslik - keng ma'noda san'atni o'rganadigan ijtimoiy fanlar majmui; umuman olganda jamiyatning badiiy madaniyatini to'liq holda va san'atning alohida turlari, ularning vujudga kelishi va taraqqiyot qonuniyatlari, o'ziga xosligi va voqelikka munosabati, ijtimoiy ongning tarixdagi roli, ijtimoiy hayot va madaniyatning boshqa jarayonlar bilan aloqasi, badiiy asarning mazmun va shakl bilan bog'liq barcha masalalari yig'indisini o'rganadi. San'atshunoslik fani adabiyotshunoslik, muzeyshunoslik, teatrshunoslik, kinoshunoslik, shuningdek, tor va eng ko'p qo'llaniladigan ma'nodagi san'atshunoslik ya'ni nafis (plastik) yoki fazoviy san'atlar hisoblangan me'morlik, rang-tasvir, haykaltaroshlik, grafika, amaliy san'at, bezak san'ati kabilarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, tasviriy san'at, me'morlik, amaliy bezak san'atining ko'p jihatlari va dizaynni maxsus o'rganadi. Plastik san'atlar doirasida san'atshunoslikning san'at nazariyasi, san'at tarixi va badiiy tanqid kabi turlari mavjud. Ular o'zaro uzviy aloqada bo'lib, har biri o'zining maxsus vazifasiga ega. San'at nazariyasi nafis san'atga nisbatan g'oyaviy mazmun, badiiy shakl, uslub, ifoda vositalari, san'atning tur va janrlariga xos maxsus xususiyatlari va boshqa masalalarni ularning o'zaro aloqasida o'rganadi; shuningdek, umumiy qonuniyatlarni, san'at taraqqiyotining obyektiv mantiqi, uning jamiyat bilan munosabati, jamoa va shaxsga nisbatan ta'sirini ko'rib chiqadi. San'at tarixi esa san'atning umumiy taraqqiyoti ("umumsan'at tarixi")ni biror mamlakat yoki alohida davrda o'rganadi va tadqiq qiladi, san'atning biror tur yoki janri, oqimi, yo'nalishi rivojini, ayrim rassomning ijodiy uslubini taxlil qiladi. Badiiy tanqid zamonaviy badiiy hayotni taxlil qiladi, uning yo'nalishi, tur va janrlarini, ayrim san'at ustalarining ijodi va ularning alohida badiiy asarlarini tekshiradi va baholaydi; san'at hodisalarini hayot va ijtimoiy davr ideali bilan qiyoslaydi. Shular asosida san'atshunoslikning asosiy sohalari va adabiy janrlari belgilanadi: nazariy risola, rassomlar uchun qo'llanma, nazariy va tarixiy, umumiy va maxsus (monografiya) tadqiqotlar, maqola va nutqlar, tanqidiy umumlashmalar shular jumlasidan. San'atshunoslik, jamiyatshunoslik va qator aniq fanlar uslubidan foydalanadi; shuningdek, badiiy ijod tadqiqot ob'yekti bo'lganligi tufayli uni estetik baholash, muayyan davr uslubi yoki san'atshunosning shu jarayonlar bilan bog'liq individual didi haqida mulohaza yuritadi. San'atshunoslikning ilmiy faoliyati keng va xilma-xil: o'rganilayotgan soha bo'yicha aniq dalillarni to'plash, ularni atroflicha o'rganish va umumlashtirish; san'at yodgorliklarini ekspeditsiyalar yordamida ochish, ta'mirlash turlari; yodgorliklarni aniklash, ro'yxatga olish va tartibga solish; rassom va uning asarlari haqida ma'lumot to'plash, ilmiy muzeylar katalogini tuzish, biografik va boshqa ma'lumotnomalar yaratish, rassomlar adabiy merosi (esdalik, xat, makrlalar va boshqalar)ni nashr qilish kabilari kiradi. San'atshunoslikning ijtimoiy ahamiyati uning xulosa va yakunlarining ilmiy ahamiyati bilan birga



san'atni ommalashtirish va tashviq qilish (ilmiy ommabop adabiyotlar, ma'ruza, ekskursiyalar uyushtirish), keng kitobxonlarni san'at asariga jalb qilish va uni tushuntirishi bilan belgilanadi. San'atshunoslikning zamonaviy estetik tamoyillar miqyosida va badiiy meros sohasida u yoki bu baholash tizimini belgilashi bilan o'z zamonasining ijodiy jarayoniga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

San'atshunoslik fan sifatida 16—19-asrlar mobaynida shakllangan. Bunga qadar, falsafiy, diniy va boshqa fanlar tarkibida yoki ayrim ma'lumot, qo'llanmalar bayoni ko'rinishida bo'lgan. Ilk namunalari Yunoniston (Aristotel, Platon, mil. av. 4-asr), Qad. Rim (Sitseron, Vitruviy, mil. av. 1 — mil. 1-asr), Osiyo mamlakatlarida san'at nazariyasi va tarixining ko'plab holatlari bayon qilingan yaxlit va universal ko'rinishdagi risolalar bitilgan. Ularda me'mor va rassomlarga ayrim qo'llanmalar, diniy mifologik afsonalar falsafiy, axloqiy va boshqa tasavvurlar, san'at tarixi elementlari qo'shilgan holda bayon qilingan. Sharqda o'rta asrlarda yaratilgan risolalarda tajribali musavvir va xattotlarning tavsiyanomalari, islom aqidalari va ma'rifiy insonparvarlik an'analari jamlangan (Sultonali Mashhadiy, Do'st Muhammad, 16-asr), san'atshunoslikning fan sifatida shakllanishida Uyg'onish davri muhim bosqich bo'ldi (L. Giberti, L. Alberti, Leonardo da Vinchi, A. Dyurer va boshqalar), ma'rifatchilik davrida mustaqil fan sifatida ajralib chiqa boshladi (fransuz D. Didro, nemis G. Lessing va boshqalar).

O'zbekistonda san'atshunoslik fan sifatida 20-asr 20 yillaridan shakllandi. Dastlab badiiy tanqidchilik jadal rivojlandi; 40 yillardan milliy madaniyat va uning merosiga e'tibor kuchaydi, san'atda vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topdi. 50-80-yillarda dolzarb masalalar, realistlik kup qirrali izlanishlarga keng yo'l ochildi (B. Nikiforov, L. Jadova, S. Krukovskaya, M. Myuns, A. Umarov, R. Toqtosh, D. Faxretdinova, T. Maxmudov, L. Shostko, A. Hakimov, N. Abdullayev va boshqalar). O'zbekiston Badiiyot akademiyasi San'atshunoslik institutida tarixchisan'atshunoslar tomonidan qad. va o'rta asrlar san'atining yangiyangi qatlamlari o'rganilmoqda (G. Pugachenkova, L. Rempel, P. Zoxidov, Sh. Toshxo'jayev va boshqalar).

San'at — ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy san'atning dastlabki izlari so'nggi paleolit davriga, taxminan mil. avv. 40—20-ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali san'at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi. Chunki ma'naviyat moddiy i.ch. bilan qorishiq holatda edi. Keyinchalik madaniyatning o'sishi natijasida san'at alohida soha sifatida asta-sekin ajrala bordi. San'at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruxda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat, ideallarini ifoda etgan. San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtayi nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.

San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi o'rnini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida jiddiy bahslarga sabab bo'lgan. Shunga ko'ra, san'at mazmuni obyektiv va subyektiv, hayotiy va xayoliy omillar birligidan tashkil topadi. San'atning ijtimoiyestetik vazifalari juda keng va



xilmaxil. San'at — inson uchun estetik zavqshavq manbai; inson hayotiga go'zallik baxsh etadi; odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi; hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi; hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi; tarbiya vositasi; hayotdagi go'zallikdan ilhrmlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlaydi; odamlar s, orasidagi ma'naviy ko'prik, muloqot vositasi; odamlarning badiiyestetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi va h.k. San'at jamiyat ma'naviy hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) bilan ma'lum darajada bog'likdir. San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamga lazzat baxsh eta oladigan, uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. San'at asarlarining diqqat markazida insonlar, ularning ijtimoiy aloqasi va o'zaro munosabatlari, muayyan tarixiy sharoitlardagi hayoti, faoliyati turadi. Shuning uchun ham san'at asarlari beradigan ma'rifiy bilim muayyan mamlakat, millat yoki bir tarixiy davr va shaxslar haqidagi ilmiy asarlardan olingan ma'lumotlardan farqqiladi. San'atning tarbiyaviy kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o'quvchi, tomoshabinning qalbiga kirib borishi, ularda zavqiy hissiyotlarni uyg'otishidadir.

San'at turli ko'rinishlari bilan o'ziga xos badiiyestetik qadriyatlarni to'plash, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo'lgan estetik tizimni tashkil etadi. San'at tasviriy san'at, me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino, sirk, badiiy adabiyot, xoreografiya va boshqalarni o'z ichiga oladi. San'atning turlari o'z predmeti, tasvir vositalari va ifoda imkoniyatlari jihatidan birbiridan farq qiladi. Masalan, adabiyotda asosiy ifoda vositasi bo'lib til xizmat qiladi; tasviriy san'atda bo'yoqlar orqali konkrethissiy obraz gavdalanitiriladi; teatrdan pyesa qaxramonlarining siymosi aktyorlarda o'z aksini topadi. San'at barcha ijtimoiy ong shakllari singari o'z taraqqiyot qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar san'atning o'z ichki xususiyatlaridan kelib chiqsada, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan xalq, millat, elat, mamlakat va jahon sivilizatsiyasi darajasi bu qonuniyatlarda o'z ifodasini topadi. San'at qonuniyatlarini estetika, san'atshunoslik o'rganadi. Ko'chma ma'noda — faoliyatning barcha sohalariga xos yuksak mahorat "san'at" deb tushuniladi. Masalan, bahs yuritish san'ati, urush olib borish san'ati, rahbarlik san'ati, notiqlik san'ati va h.k.

San'at tarixi deganda odamlar tomonidan [estetik](#), aloqa, fikr, hissiyot yoki [dunyoqarash](#) bildirish maqsadida qilingan har qanday faoliyat yoki mahsulot tarixi tushuniladi. Turli zamonlarda turlicha toifalashtirilgan, masalan o'rta asrlarda u [mustaqil](#) va [mexanik san'atlarga](#) ajratilgan bo'lsa, keyincha u [nafis](#) va [amaliy-dekorativ san'atga](#) bo'lindi; hozirda san'at odam ijodkorligining namoyishi, deb ta'riflanadi. XX asrda kelib asosiy san'atlar qatoriga quyidagilar kirdi: [arxitektura](#), [raqs](#), [haykaltaroshlik](#), [musiqa](#), [rassomchilik](#), [nazm](#) ([adabiyotning](#) estetik shakli yoki funksiyasi, o'z ichiga [teatr](#) va [narrativni](#) ham oladi), [kinematograf](#) va [fotografiya](#). [Plastik](#) va tasviriy san'atlar to'qnashgan joyda [dizayn](#) va [poligrafiya](#) kelib chiqdi. [Moda](#) va [gastronomiya](#) kabi badiiy ifodalashning qadimiy shakllariga qo'shimcha sifatida [video](#), [komputer](#), [reklama](#), [animatsiya](#), [televideniye](#) va [videoo'yinlar](#) kabi yangi san'atlar kelib chiqdi. San'at tarixi bir necha [fanlarga](#) tayanib, san'atning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishi, [madaniyatlarni](#) sinflashtirish, [davrlarga bo'lish](#) hamda san'atning farqli va ta'sirli xarakteristikalarini o'rganadi. San'at tarixini o'rganish [Renessans](#) davrida kelib chiqib, [g'arbiy tamaddun](#) bilan cheklangan. Biroq vaqt o'tishi bilan u boshqa [tamaddunlar](#) madaniyatini ham o'z ichiga oldi va [madaniy relativizm](#) kelib chiqdi. Bugunda san'atga insoniyatning tarix osha yig'ilgan badiiy merosining keng ko'lamlil tadqiqoti, tarqatuvil va saqlanishidan foyda kelmoqda. XX asrda ham jamoa, ham xususiy sektorlarda [san'at asarlari](#) tahlili va katalogizatsiyasi hamda omma uchun mo'ljallangan ko'rgazmalarga bag'ishlangan badiiy institut, jamg'arma, [muzey](#) va [galereyalar](#) soni jadallik bilan oshdi. [Aloqa vositalari](#) rivojlanishi san'at tadqiqoti va tarqalishida hal qiluvchi rol o'ynab



kelmoqda. [Whitney](#), [Venetsiya](#), [San Paulu](#) biennalelari, [Kasseldagi documenta](#) kabi xalqaro ko'rgazmalar yangi uslub va trendlar yuzaga kelishiga yordam qildi. [Turner](#), [Wolf](#), [Pritzker](#), [Pulitzer](#) va [Oscar](#) kabi mukofotlar eng yaxshi san'at namunalarini xalqaro darajada rag'batlantirib kelmoqda. [UNESCO](#) kabi institutlar sayyoramizdagi ahamiyatli monumentlarni saqlab qolish yo'lida ishlar olib bormoqda.

IX asrda O'rta Osiyoda Tasviriy san'at, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qon miniaturachilari ijodiyoti o'zini namoyon qildi. Ma'lumki, XIX asr ma'rifatparvari, shoir, faylasuf, hattob, falakiyotchi Ahmad Donish (1827-1897) yana musavvir iste'dodiga ega edi. Uning bizgacha yetib kelgan rasmlari: Abduqodir Bedilning "To'rt unsur" qo'lyozma asariga bag'ishlab chizilgan "Shoir va rassom" miniaturasi hamda shahar mirshabini aks ettirgan satirik miniaturasi bundan dalolat beradi. U chizgan miniaturlar nihoyasiga yetkazilgan mukammal rasm, o'rniga qo'yilgan bo'yoqlar, aniq-ravon kontr chiziqdari, uning grafik dastxati bilan ajralib turadi. Ahmad Donishning shogirdi Abdulxoliq Mahmud ham qurt-qumursqalar va gullarni mahorat bilan aks ettirgan rassom sifatida tanilgan. Toshkentlik To'xta Sodiq Xo'jayev o'z qo'li bilan, biron-bir haykaltaroshlik asboblari va kesiklarisiz, oddiy qalamtarashda o'yib ishlagan ot va kiyik haykalchalarining. 1886 yildayoq Turkiston ko'rgazmasida namoyish etilganligi O'rta Osiyo xalqlarining borliqni badiiy tasvirda aks ettirishga intilishlaridan dalolat beradi. Ana shu ko'rgazmada Toshkentlik kosiblar tomonidan bajarilgan uylarning: ganchdan yasalgan ikki qavatli yevropa uslubidagi uy va nihoyatda mahorat bilan haqiqiysiga o'xshatib yasalgan ikkita o'zbek uyi modellari ham namoyish etilgan edi

Taniqli o'zbek ganchkor usta Toshpo'lat Arslonqulov (1882-1962) Toshkentdagi harbiy kengash (Ofitserlar uyi) binosida fotosuratlardan foydalangan holda A.V.Suvorov va M.I.Kutuzovlarning portretlari tushirilgan barelyef-medalonlarini ganchdan yasadi. 1915 yilda Toshkent litografiyasi "Go'r o'g'li" epik dostonini rassom Sirojiddin Maxsum Siddiqiyning illustarsiyalari bilan chop etdi. Bu 19 asr oxirlari va 20 asr boshlarida ijodiyoti bosmaxona nashri bilan bog'liq bo'lgan yagona o'zbek rassomidir. XIX asrning 70-yillarida va XX asr boshlarida Turkiston tasviriy san'atida rus rassomlarining, asosan Peterburg badiiy akademiyasi tarbiyalanuvchilarining asarlari o'rin olgan. Ularning ijodiyoti O'rta Osiyo tarixi va o'sha davrini, tabiati va turmushini aks ettirgan. V.V.Vereshchagin o'z ijodiyotida Turkiston hayoti va maishiy turmushini aks ettirgan birinchi va nufuzli rassom edi. Uning Turkiston mavzusidagi rasmlari ko'pgina mamlakatlar va xalqlar uchun ushbu o'lkani chinakamiga badiiy kashf etdi. Turkiston turkumida rassom o'lkada madaniy va maishiy turmush tarzini insonparvarlik ruhi singdirilgan yaxlit va ko'p qirrali kartinalarida aks ettirildi. U o'zining qator asarlarida yuksak qurilish madaniyati va O'rta Osiyo me'morlari hamda xalq hunarmadlarining ajoyib bezak mahoratini namoyon etgan. XX asr boshlarida Turkistonda o'rta o'quv yurtlarida rasm va chizmachilikdan dars beradigan o'qituvchi-rassomlarning paydo bo'lganligi holati o'lkada tasviriy san'at va tasviriy savodxonlikning dastlabki kurtaklari nish ura boshlaganidan dalolat berganini ta'kidlash mumkin. Bu esa Turkistonda badiiy muhitning qaror topishiga ko'maklashgan.

Toshkentlik mashhur manzarachi Sergey Petrovich YUdin (1858-1933) Temir yo'l ishchilarining teatr to'garagiga rahbarlik qilgan, shuningdek Toshkentdagi havaskor teatrlar uchun dekoratsiyalar chizgan. U Peterburg Badiiy akademiyani tugatganidan so'ng 1902 yilda Toshkentga keladi. S.YUdin – quyoshli plener etudlar ustasidir. Ananaviy manzara rang tasvir uslubida chizilgan manzara kartinalari bilan nihoyatda shuhrat qozondi. S.YUdinning 1910 yilda yaratilgan "Qish oqshomi" manzarasida rassomning tabiat bilan bevosita jonli mulqotini hamda musaffo istiqbolni aks ettirishda zo'r mahoratini his etish mumkin. Uning tog' va vodiydagi manzaralarida keng makon, yorug'lik va



ko'lanka o'yini nihoyatda yaqqol va yorqin aks ettirilgan. Samarqandlik Leonard Leonardovich Bure (1887-1943) yoshligidanoq rang-tasvirga qiziqish bildirgan. 1904 yilda u Moskvaga jo'nab ketib, u yerda rang-tasvirni o'rgandi, so'ngra Peterburgdagi badiiy akademiyada o'qishni davom ettirdi. Ma'lumot olganidan so'ng u ona yurtiga qaytib, ijod qilish bilan birga umrining oxiriga qadar Samarqand rassomchilik bilim yurtida dars berdi. Bure manzara rang-tasvirida naturadan etudlar chizish bilan cheklanib qoldi. Uning me'morchilik manzaralari bo'yoqlarning haqqoniyligi, ranglarni nafis his etishi bilan ajralib turar edi. Bure me'moriy yodgorlikka doir nuqtai nazarni tanlashda bir qolipga tushib qolmaslikka harakat qildi, doimo yangi qirralarni izlab topdi. Kolleksiyada uchta me'moriy manzara: 1907 yildagi "Labihovuz", 1910 yildagi "Madrasa hovlisi" va o'tgan yili galereyaga olingan 1929 yilgi "Samarqand" kartinalari mavjud bo'lib, rassom ularni o'zining sevimli shaharlari – Buxoro va Samarqandda chizgan. O'zbekistondagi eng mashhur rassomlardan biri, rang-tasvir ustasi va shoir Aleksandr Nikolayevich Volkov (1886-1957)ning hayoti va ijodi Farg'ona bilan bog'liq bo'lgan. O'zbekiston xalq rassomi Farg'ona shahrida tug'ilgan, Peterburg badiiy akademiyasida o'qigan, Toshkentdagi rassomchilik texnikumida dars bergan.

A.Volkov rus rassomlarining analariga rioya qilgan bo'lsada, Fransuz kubistlarining tajribasini ham o'zlashtirgan. U rang-tasvirida o'z uslubini axtarib topish g'oyasi bilan yashadi. Volkov betakror rang-tasvir tuzilmasini, sharqning o'ziga xos ritmikasi va rang-barang bo'yoqlarini XX asr birinchi choragidagi "Parij maktabi" usullari bilan uyg'unlashtirishga intildi. A.Volkovning ijtimoiy holi 1916 yildan 1928 yilgacha bo'lgan davrda uning suratlari mavzulari choyxona, tuya karvonlari, eski shahar va shu kabilardan iborat bo'lganligidan dalolat beradi. Ushbu mavzu va sujetlarni u kubizm va ekspressionizm yo'nalishida aks ettirgan. Tretyakov galereyasida saqlanayotgan "Anorli choyxona" kartinasi u kubizmga qiziqib qolgan paytda, 1924 yilda chizilgan. 1968 yilda bu kartina Parijda namoyish etilib, Parij matbuoti tomonidan keng fikr-mulohaza bildirilishiga sabab bo'lgan, Fransuz televideniyesida ham namoyish etilgan. Bankning kolleksiyasida saqlanayotgan "Kuz manzarasi" kartinasi impressionizm uslubida 1931 yilda chizilgan bo'lib, unda rang va yorug'lik zo'r mahorat bilan murakkab ravishda o'zgartirib borilgan. O'zbekiston Tasviriy san'ati tarixida Usto Mo'min (1897-1957) nomi bilan kirib kelgan rassom Aleksandr Vladimirovich Nikolayev ham O'rta Osiyoning ko'hna madaniyatiga, boy xalq san'atiga oshiq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1.Wikipedia.org
- 2.Academy.uz
- 3.Ziyouz.com
- 4.Kitobxon.com
- 5.Kitobman.com
- 6.Oliygoz.uz

